

**JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETIDA TA'LIM SIFATINI  
OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI**

**Parsiyev S. S**

. “Axborot texnologiyalari” kafedrasi professori, t.f.d. (DSc), dotsent

**Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston  
taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir.**

**Sh.M. Mirziyoyev**

**Annotatsiya.** Maqolada ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish imkonini beruvchi tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ta'lim tizimiga raqamli dasturiy platformalarni joriy etish orqali ijobjiy natijalarga erishish omillari batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, axborot texnologiyalar, ta'lim sifati, dasturiy platformalar.

Zamonaviy jamiyatning rivojlanish darajasi uning intelektual salohiyati orqali belgilanadi, ya'ni yangi texnika va texnologiyalar orqali ishlab chiqarish, o'zlashtirish va olingan natijalarni amaliyotga qo'llash darajasi bilan belgilanadi. Bu xolatda albbatda birinchi navbatda ta'lim tizimining to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liq bo'ladi. Oliy ta'limning rivojlanishi birinchi o'rinda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) keng ma'noda joriy etilganliga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining asosiy sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o'zları shakllantirishlariga o'rgatadi. Muhimi, ta'lim jarayonida talaba asosiy bo'g'inga aylanadi va mustaqil bilim olishga intiladi. Ta'lim jarayonining sifatini oshirish uchun va ta'lim oluvchilarda yanada qiziqish va ko'nikmalar hosil qilish uchun ta'lim jarayoniga yangi zamonaviy uslubiy va texnikaviy tashkil etuvchilarni kiritish kerak bo'ladi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayonida samarali foydalanishning asosiy yo'llaridan biri barcha talablarga to'liq javob bera oladigan dasturiy ta'minotni to'g'ri tanlash hisoblanadi. Oliy ta'lim jarayonini to'liq raqamlashtirish orqali ta'lim oluvchilarning va professor-o'qituvchilarning raqamli platformalar orqali har qanday masofadan turib bir-brilari bilan muloqat qilish imkonи

yaratiladi. Professor-o‘qituvchilar kerakli fanlar bo‘yicha, fan dasturlariga mos xolda, ta’lim resurslarinin (kontentlarini) tizimga yuklash orqai ta’lim oluvchilarga qulayliklar yaratadi. Har bir talaba qaysi joyda joylashishidan qat’yi nazar tizimga kirib fan bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni olishlari, topshiriqlarni bajarishlari hamda kerakli savollarini online ravishda yuborishi va javob olishlari mumkin bo‘ladi.

Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan asosiy DASTURIY ta‘minotlar quyidagilar hisoblanadi:

- mualliflik dasturiy maxsulotlar (Authoring Packages));
- ta‘limni boshqaruv tizimlari (Learning Management Systems – LMS);
- kontentni boshqaruv tizimlari (Content Management Systems – CMS);
- o‘quv kontentini boshqaruv tizimlari (Learning Content Management Systems – LCMS ).

Kadrlarning innovatsion va informatsion kompetentligini rivojlantirish, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o‘qituvchilarning faolligini oshirish, chet tillarni o‘zlashtirish motivatsiyasini qaror toptirish professor-o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotlarini yanada sifatli olib borishda asosiy ko‘rsatgichlar bo‘lib qoladi, pirovard natijada ta’lim sifatini oshirishga katta imkon yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni [1] vazifalarini amalga oshirish borasida Jamoat xavfsizligi universitetida “Raqamli universitet” platformasini ishlab chiqish va o‘quv jarayonining yagona raqamlashtirilgan tizimini joriy qilish va nazoratni tashkillashtirish ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonini to‘liq tahlil qilish imkonini beruvchi raqamli tizimni yaratish, ta’lim, tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni takomillashtirish, ta’limning shaffofligi va uzlusizligini ta‘minlanish, ta’lim resurslaridan samarali foydalanish imkoni yaratiladi.

Ta’lim sifatini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va ta’lim tizimiga joriy etish natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin bo‘ladi [2,3]:

- o‘quv materiallarini muayyan tartibda tizimlashtirish;
- o‘quv materialari va topshiriqlarining ta’lim oluvchilar imkoniyatiga ko‘ra moslashtirish;
- ta‘limni individuallashtirish;
- ta‘lim oluvchilar imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish;
- ta‘lim oluvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish;
- ta‘lim oluvchilarning professor-o‘qituvchilar bilan uzoq masofadan turib muloqat qilish imkonini yaratilish;

- t‘alim oluvchilarning axborot resurs kontentlaridan foydalanish imkonini yaratish.

Ta’lim sifatini oshirish va ta’minalash boraitsda yuqorida keltirilgan omillar inobatga olinsa talaba yoshlarning bilim va intelektual qobiliyatlarini yanada oshiriga va rivojlantirishga katta hissa qo’shgan bo‘lamiz. Buning uchun esa mutaxassislik kafedralarda o‘qitilayotgan fanlarning fan dasturlari sohadagi muaommalarga amaliy yechim tavsiya etiladigan darajada shakllantirishi kerak bo‘ladi. Ilm – fan rivojlanishi talaba yoshlarning bilim va intektual qobiliyatining to‘liq shakllanishiga bog‘liq bo‘lib qoladi.

“Raqamli universitet” platformasiga bosqichma-bosqich o‘tish global ta‘lim jarayonlariga integratsiya qilish imkoniyatini beradi. An‘anaviy dars jarayonlarini olib borish zamon talablariga mos bo‘lmay qolmoqda, dars jarayonlarini yanada qiziqarli hamda sifatli olib borish uchun yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda ta‘lim resurslaridan samarali foydalanish hamda ta‘lim sifatini oshirish maqsadida oliy ta‘lim muassasalarida LMS (Learning menejment system) ta‘lim platformasi ishga tushirilgan. Ushbu ta‘lim platformasi orqali barcha ta‘lim yo’nalishlari talabalari uchun yagona avtomatlashtrilgan ichki monitoring va nazorat tizimi butun pedagogik faoliyat ish tartibini to‘liq nazorat qilish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, telekommunikatsiya tarmoqlari asosida raqamlashtirish natijasida bilim dargohi xududida yagona raqamli lokal tarmoq yaratiladi va shu tarmoq orqali barcha ta‘lim resurslarini tizimga yuklash va nazorat qilishning yagona platformasi ishga tushiriladi. Natijada pedagog hodimlarning ish samaradorligi va sifatini bir necha barobarga oshirish imkon yaratiladi va kompyuterlarni bir-birlariga bog‘lovchi yagona “Elektron ta‘lim” korporativ tarmog‘i yaratiladi.

#### **Foydalanilgan manbaalar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

Internet saytlar:

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. [www.mininnovation.uz](http://www.mininnovation.uz)